

QO'QON MUHITIDA AYOLLAR SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

<https://doi.org/10.2961/zenodo.15676398>

Mirzayeva Shahribonu Komiljon qizi

Qo'qon davlat Universiteti o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: Axmedov Jasurbek Zokirjonovich

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

Annotatsiya

Mazkur maqola Qo'qon madaniy muhitida ayollar san'atining shakllanishi va rivojlanish jarayoni xususida tarixiy manbalar, hamda madaniy-estetik tahlillar asosida o'rganiladi. Tadqiqotda Qo'qon xonligi davridan boshlab XX asr oxirigacha bo'lgan ayollar ijodining ijtimoiy mavqei, ularning badiiy merosidagi o'ziga xosliklar, marosim va maishiy san'at sohalaridagi faol ishtiroki yoritilgan.

Kalit so'zlar

Qo'qon xonligi, ayollar san'ati, an'ana, folklor, amaliy san'at, madaniy muhit, ijodiy meros.

Аннотация

В данной статье на основе исторических источников и культурно-эстетического анализа изучается формирование и развитие женского искусства в культурной среде Кокандского ханства. Исследование охватывает социальный статус женского творчества со времен Кокандского ханства до конца XX века, специфику их художественного наследия и активное участие в сферах ритуального и домашнего искусства.

Ключевые слова

Кокандское ханство, женское искусство, традиция, фольклор, прикладное искусство, культурная среда, творческое наследие.

Abstract

This article studies the formation and development of women's art in the Kokand cultural environment based on historical sources and cultural and aesthetic analyses. The study covers the social status of women's creativity from the time of the Kokand Khanate to the end of the 20th century, the specifics of their artistic heritage, and their active participation in the spheres of ritual and household art.

Keywords

Kokand Khanate, women's art, tradition, folklore, applied art, cultural environment, creative heritage.

Qo'qon muhitida ayollar san'ati, asosan, xalq og'zaki ijodi (she'riyat, dostonchilik) va amaliy san'at (kashtachilik, duxoba) orqali rivojlangan, xususan, XX asr boshlarida jadidchilik ta'sirida o'zbek ayollari adabiyotga kirib kelgan (Mas'uda, Munavvarqori), ammo xonlik davrida bevosita san'atkor sifatida emas, oila va ma'naviyat himoyachisi sifatida katta rol o'ynagan, bu esa keyingi davrlarda badiiy ijodning gullab-yashnashiga zamin yaratgan.

Xonlik adabiy muhiti, asosan, erkak shoirlar, yozuvchilar markazi bo'lgan, lekin ularning ijodida ayollar obrazlari, ma'naviy dunyosi muhim o'rin tutgan. Ayollar qo'li bilan yaratilgan kashtachilik, tikuvchilik (duxoba), gilamdo'zlik kabi amaliy bezak san'atlari juda rivojlangan. Bu san'at namunalari nafaqat oila ehtiyojlari uchun, balki savdo-sotiq va madaniy hayotning ajralmas qismi bo'lgan. Ayollar oila va qishloqning ma'naviy ustuni bo'lgan, milliy urf-odatlar, din, milliy g'ururni saqlab qolishda asosiy rol o'ynagan.

Qo'qon xonligida ayollar san'ati deyarli alohida "bosqich" sifatida emas, balki xonlikning umumiy madaniy-ijtimoiy rivojlanishida, ayniqsa, malikalar, dodxohlar, hunarmand ayollar (kulol, matot, tikuvchi) va xalq tomosha san'ati (raqqosalar, sozandalar) orqali namoyon bo'lgan; bu san'at, asosan, oilaviy an'analar, saroy madaniyati, xalq amaliy-badiiy ijodiga asoslangan, xonlik madaniyatining ajralmas qismi sifatida shakllangan va rivojlangan, bu yerda ayollar yaratuvchanlik, homiylik va ijodda faol qatnashgan.

O'z davrining ilm sirlarini egallagan, teran zakovatli, mehr-muhabbatda yuksak qalb sohibalari bo'lgan malikalar davlatda qamrovi keng bo'lgan sahovatpeshalik ishlarini boshlab bergan. Shunday malikalardan biri Qo'qon xonligining birinchi hukmdori Shoxruhbiyning rafiqasi Nozikbibi sanaladi. Nozikbibi ismining ma'nosi „nozik qiz“ degan ma'noni bildiradi. Nozikbibi XVIII asrda Hirotda yashagan. Shohruxbiy hayotining so'nggi yillarida, ya'ni taxminan 1719-yilda o'zbek urug'larini yanada jipslashtirish maqsadida Qirq urug'i oqsoqolining qizi bo'lgan Nozikbibiga uylandi. Shundan so'ng Nozikbibining mavqeyi o'zgarib, Nozik Oyim deb aytila boshlangan. Shohruxbiy ushbu xotini uchun Laylakxona (shaharning janubiy qismida) mavzesining bir tomonida yer-mulk in'om qiladi va bu joyda saroy barpo qiladi. Ikki yillar chamasi vaqt o'tib, 1721-yillar atrofida Shohruxbiy vafot etgach, Nozik Oyim bu saroyga doimiy yashash uchun ko'chib o'tadi. O'ziga in'om etilgan saroy atrofidagi ekin maydonlarini atrof qishloqlardagi nochor dehqonlarga foydalanishga taqsimlab beradi. O'z o'g'li Abdurahmonni tarbiyalash bilan birga qishloq qizlarini maktab

ochib, savodini chiqarish bilan shug'ullanadi. O'z yerlaridan kelgan mablag'lardan yetimxona ochib miskinlarni qo'llab-quvvatlaydi hamda qishloq maktabi xarajatlariga sarf etadi. Ushbu saroy asosida yuzaga kelgan qishloqqa xalq „Oyim qishloq“ deb nom beradi. Keyinchalik bu joy xonlikning boshqa aslzoda ayollari uchun ham tabarruk joyga aylanib, Qo'qon malikalari bu joyda ma'lum muddat yashashni o'z burchlari va sharafi deb biladilar.²⁸ Nozikbibi davlat ishlari hayriya ishlaridan tashqari she'rlar ham yozib turgan. Bulardan eng mashhuri „Muxammas“ hisoblanadi.²⁹

Xonlik tarixida nom qoldirgan malikalardan yana biri Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy (1763-1798) ning rafiqasi ming urug'i oqsoqolining qizi Zuhra Oyimdir. Shahar ahli malikani ming urug'idan ekanligini hisobga olib unga „Mingoyim“ deb nom beradilar. Boshqa bir manbada ta'kidlanishicha, Mingoyimning asl ismi Faxriniso bo'lib, Imomqulibekning qizi bo'lgan.³⁰ Malika hukmdorga turmushga chiqqan paytida unga mahr sifatida katta, yer-mulk beriladi, ushbu mulkdagi hovlilardan birida maktab ochib, otinbibilarni yollab, qizlarni o'qitadi. Yerlarining bir qismini turli masjid, madrasa, xonaqoh va qabristonlarga vaqf qilib beradi. Mingoyim Nozikbibining nabira kelini bo'lganligi uchun Oyimqishloq yaqinidagi o'z yerlarini qayinbuvisidan ibrat olib, yersiz dehqonlarga taqdim etadi. Bu joyda vujudga kelgan qishloq „Oyim qo'rg'oncha“ deb nomlanadi.³¹ Mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegim (asl ismi Mohlaroyim) ham Qo'qon malikalari orasida munosib o'rin egallaydi. Nodirabegim 1792-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. „Komila“ va „Maknuna“ taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Nodira Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi bo'lib, Rahmonqulbiy ming urug'i o'zbeklarining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri edi. Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va uni 1807-yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi. Shoir Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush o'rtog'i Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida ijod qilgan. Mohlaroyim Umarxon nikohiga o'tgach, avval Marg'ilonga, so'ngra Qo'qonga keladi. 1810-yili Olimxon o'ldirilgach Qo'qon taxtiga Umarxon o'tiradi. Mana shu davrdan boshlab, Mohlaroyimning xonlik hayotidagi roli faollashib boradi. Umarxon davrida ayollar huquqlari ma'lum darajada himoya qilina boshlandi. Bunda uning rafiqasi Mohlaroyimning xizmatlari benihoya kattadir. U ayollarning o'qish, yozishni o'rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishini yo'lga qo'ygan. Qo'qon xonligida ayollar san'ati alohida „maktab“ sifatida emas, balki xonlik

²⁸ Dadaboyev Y. - B. 131.

²⁹ Alixo'jayev M. – B. 122

³⁰ Qayumov A. - B. 220.

³¹ Esanov Z., Toshmatov Sh., Isomiddin Z.- B. 52.

madaniyatining tabiiy davomi, oila va xalq an'analari orqali shakllangan va rivojlangan.

Ayollar san'ati, xususan, an'anaviy hunarmandchilik va ijodiy an'analar saqlanib qolgan, ammo xonlikning iqtisodiy qiyinchiliklari va siyosiy beqarorligi tufayli ba'zi sohalarda tushkunlik kuzatilgan, ammo xalq an'analari saqlanib qolgan.

Qo'qon muhitida ayollar san'ati tarixiy-madaniy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlaydigan muhim ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy hunarmandchilik, suzani tikish, marosim qo'shiqlari va oilaviy urf-odatlar ayollar tomonidan avloddan avlodga o'tkazilib, mahalliy identitetning asosiy qatlamlarini shakllantiradi. Ushbu san'at nafaqat estetik faoliyat, balki tarbiyaviy, integrativ va iqtisodiy funksiyalarni ham bajaradi. Ayollar ijodiy faoliyati orqali marosimiy madaniyat mustahkamlanadi, jamiyatning ma'naviy qadriyatlari tiklanadi va mahalla doirasida ijtimoiy birdamlik kuchayadi.

Bugungi global jarayonlar, raqamli kommunikatsiya va kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi Qo'qon ayollar san'atiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Hunarmandchilik mahsulotlari bozorlarga, turizmga va onlayn savdo maydonlariga chiqib, san'atning iqtisodiy ahamiyati ortmoqda. Shu bilan birga, modern estetik talqinlar an'anaviy san'atga yangi shakl va mazmun bag'ishlamoqda. Qo'qon muhitida ayollar san'ati to'g'ridan-to'g'ri professional san'atkorlikdan ko'ra, oilaviy an'analar, amaliy ijod va ma'naviy tarbiya doirasida rivojlangan, keyinchalik, XX asr boshlarida adabiyot va publitsistikada o'zini namoyon etgan.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon muhitida ayollar san'ati ko'p asrlik madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari qo'shiqchilik, marosim va amaliy bezak san'ati sifatida shakllangan. Ayollar san'ati nafaqat estetik qadriyat, balki tarbiyaviy, ma'naviy va ijtimoiy vazifalarni bajargan. Mazkur san'at turlari bugungi kunda ham xalq ijodi va madaniy merosning muhim bo'g'ini sifatida o'rganilmoqda. Qo'qon ayollar ijodi Markaziy Osiyo madaniy rivojining ajralmas qismi bo'lib, u o'zining boy an'analari bilan zamonaviy folklorshunoslik va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun qimmatli manba hisoblanadi. Qo'qon muhitida ayollar san'ati to'g'ridan-to'g'ri professional san'atkorlikdan ko'ra, oilaviy an'analar, amaliy ijod va ma'naviy tarbiya doirasida rivojlangan, keyinchalik, 20-asr boshlarida adabiyot va publitsistikada o'zini namoyon etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev Y. Xo'qondi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanishi tarixi.-Farg'ona, 2007. - B. 131.
2. Alixo'jayev M. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni. - T., 2012. - B. 122.
3. Ahmedov A. Farg'ona vodiysi madaniy merosi. - Toshkent, 2018.
4. Sodiqova Z. O'zbek ayollarining folklor merosi. - Toshkent, 2015.
5. Mamarasulov S. Qo'qon xonligi tarixi va madaniyati. - Qo'qon, 2020.
6. Vohidova S. O'zbek xalq amaliy san'ati tarixidan. - Toshkent, 2014.
7. Etnografik manbalar va xalq og'zaki ijodi namunalari.